International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

“YASHIL IQTISODIYOT” VA UNING BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI O‘RNI



Yangiboyev Berdiyar Yangiboyevich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM professori, iqtisodiyot fanlari doktori
E-mail: yangiboyevberdiyar@mail.ru
Bozorov Samar Safarovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM assistenti
E-mail: bozorovsamar1982@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yashil iqtisodiyot” ning milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatiga asosiy e’tibor qaratilib, jahonda “yashil iqtisodiyot” ni shakllantirish va unga o‘tishni ta’minlash borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni tahlil qilish asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashning nazariy asoslarini va ustuvor yo‘nalishlari yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsion iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье рассмотрено место и значение «Зеленой экономики» в стабильной развитие национальной экономики, основное внимание сосредоточено на касательно собранный передовой опыт развитых стран на формирование и переход на «зеленой экономики» и сделаны попытки некоторые анализировать теоретические основы перехода к зеленой экономики и приоритетные направления её развитияю

Ключевые слова: экономика, экологическая экономика, окружающая среда, зеленая экономика, зеленая политика, теория международных экономических отношений, модернизация экономики, инновационная экономика.

Abstract: This of “Green economy” in the article national the economy stable in development place and importance main attention focused on “green” in the world economy”. formation and to him to pass provide regarding collected advanced experiences analysis to do based on stable development of provision theoretical the basics and priority directions light up tried to give.

Key words: economy, ecological economy, environment economy, green Politics, International economic relationships theory, economics modernization, innovation economy.

Kirish

Mamlakatimizni 2030-yilgacha bo‘lgan davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish o‘ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik komponentlari avlodlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshiradi va ekologik komponentlarning atrof-muhitga ta’siriini baholash bilan bog‘liq yangi g‘oyalar va yondoshuvlarning shakllanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim manba bo‘lib hisoblanadi [1].

“Yashil iqtisodiyot”ni jadallashtirish negizida barqaror o‘sishni ta’minlashda iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan issiqxona gazlarining chiqindilari 2010-yil darajasidan o‘n foizga kamaytiriladi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi, elektron transport rivojlanadi.

Shu nuqtai-nazardan O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati milliy iqtisodiyotda iste’mol qilinayotgan energiyaning aksariyat qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanilayotganligi, ushbu resurslar zahirasining cheklanganligi inobatga olinib, atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish muammolarni hisobga olishni taqozo etadi.

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli

“Yashil iqtisodiyot” atamasi fan sifatida va amaliy o‘zgarish sifatida tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi bilan bog‘liq muammolar insoniyatning barcha faoliyat yo‘nalishlari, jumladan, iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli ushbu muammoni o‘rganish XX asrning 60-70-yillarida ommalasha boshladi. Bu davrda iqtisodiy adabiyotlarda “atrof-muhit iqtisodiyoti” deb nomlangan yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi. Ushbu yo‘nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar talqin etila boshlandi. Unga muvofiq ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlashtirilishi zaruriati paydo bo‘ldi va shular yuzasidan ilg‘or fikrlar shakllandi [2].

XX asrning 80-90-yillarida ekologik muammolarni tor doirada iqtisodiy yondashuvlar orqali hal etishning muqobil varianti sifatida ekologiya iqtisodiyoti fani paydo bo‘ldi. Atrof-muhit iqtisodiyotidan farqli ushbu yo‘nalish ilmiy tadqiqotlarning mustaqil sohasi sifatida talqin etildi [3]. Ilk bor (1989 yilda) Buyuk Britaniyaning yetakchi iqtisodchilari tomonidan “Yashil iqtisodiyot”, deb nomlangan atama fanga kiritildi [4].

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish nazariy va g‘oyaviy jihatdan asoslangandan keyin, uning huquqiy asoslarini shakllantirish va sohaga oid tegishli qonunchilikni ishlab chiqish zaruriyati ham paydo bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari

“Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga oid qonunchilik iqtisodiyotni “yashillashtirish”ga ko‘maklashishi bilan bir vaqtda milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ham taminlashga keng imkoniyatlar yaratdi. Barqaror rivojlanishni “ijtimoiy”- “iqtisodiy”-“ekologik” uchlikning o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara sifatida taraqqiyotga yetaklaydigan jarayon sifatida tasavvur etish boshlandi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanishni nazarda tutadigan munosabatlarni yuzaga chiqardi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Ye.R.Lindal va J.R.Xikslar asos solishgan. Xiks-Lindal ta’limotida yalpi daromadning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi.

Barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda uch konsepsiyaning o‘zaro ta’sir mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga iqtisodiy taraqqiyotga erishishning bir qator yo‘nalishlari va aholining farovonligini yanada yaxshilashdan iborat yangi vaziflarni qo‘ymoqda.

Barqaror rivojlanishni ta’minlash borasidagi xalqaro amaliy faoliyat BMT tashabbusi bilan ilgari surilgan. 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Ming yillik rivojlanish maqsadlari” qabul qilindi va 2015-yil qo‘yilgan maqsadlarga erishishni hisoblash yili sifatida belgilab olindi. BMTning 2012-yilda barqaror rivojlanish mavzusida o‘tkazilgan “Rio+20” Konferensiyasida barqaror rivojlanish maqsadlarini (Sustainable Development Goals (SDGs)) ishlab chiqishga kelishib olindi. Ushbu maqsadlar BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030 yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan.

Keyingi yillarda barqaror rivojlanishni ta’minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashishni keltirib chiqardi va Xalqaro investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini amaliyotga tadbiq etish masalalari ushbu muhokamalarning negizini tashkil etadi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish masalasiga e’tibor kuchaydi. Mamlakatimiz 2015-yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan 17 ta maqsadlar va 169 ta vazifalardan iborat barqaror rivojlanish dasturini qo‘llab-quvvatlab, barqaror rivojlanish sohalari bo‘yicha kompleks ishlarni olib borishini ma’lum qildi.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Parij bitimi majburiyatlari bajarilish maqsadida 2019-yil 4-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori qabul qilindi

Xulosalar

“Yashil iqtisodiyot”ning har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni yuzasidan quyidagilarni xulosa sifatida tavsiya qilamiz:

-rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti ustun darajada tabiiy resurslardan intensiv foydalanishga asoslanadi va bu o‘z navbatida atrof - muhitning ifloslanishiga olib keladi;

-ishlab chiqarish texnologiyalarining aksariyat qismi eskirganligi sababli ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarishni texnologik jihatdan yangilashda jiddiy muammolar mavjud;

-davlat xarajatlarida yashil iqtisodiyotga sarflanayotgan kapital qo‘yilmalar miqdori yanada ko‘paytirishni taqoza qiladi;

-yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi to‘siqlarni bartaraf etish;

-xo‘jalik yuritish va atrof-muhit muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash;

-iqtisodiy faoliyat tufayli uzoq istiqbolda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirish;

-energiya samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda oshirib boorish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori.
2. Beder, S. 2011, 'Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', Environmental Conservation, vol. 38, no. 2, pp. 140-150.
3. SPASH 2011. Social Ecological Economics: Understanding the Past to See the Future. The American Journal of Economics and Sociology. Volume70, Issue2 April 2011. https://doi.org/10.1111/j.1536-7150.2011.00777.x
4. Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, GreatBritain, 1989. 192 pp.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori.
6. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 21 майдаги “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида”ги ЎРҚ-539-сон Қонуни.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024